(2). Antolković, M. (2024). A Contrastive Analysis of Food Metaphors in English and Croatian (Doctoral dissertation, University of Zagreb. Faculty of Humanities and Social Sciences. Department of English language and literature).
(3). A.Najimov. Ha`zirgi qaraqalpaq tili. Sintaksis. No‘kis, 1990.
(4). Da`wenov E. Ha`zirgi qaraqalpaq tilindegi so‘z dizbekleri. No‘kis, 1987.
(5). Ha`zirgi qaraqalpaq a`debiy tilinin` grammatikasi. No‘kis, 1992.
(6). Kovecses, Z. (2010). Metaphor: A practical introduction. Oxford university press.
(7). Ünsal Ocak, E., & İşisağ, K. (2021). A comparative and conceptual study on the translations of animal metaphors. Social Sciences Studies, 7(84).
(8). Карасик В.И. О типаксе дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс, сб. науч. ст., Волгоград, 2000, с. 5–20.

Yakupova Kamila Turmaxammetovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Ingliz tili va adabiyoti” kefedrasi assistent o‘qituvchisi; e-mail: kamilayakupova1984@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ISMLAR VA ULARNING DENOTATLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ismlar va ularning denotati o‘rtasidagi bog‘-liqlikni, lingvistik, madaniy va ijtimoiy ma’nolari qiyosiy tahlil qilinadi. Ismlar oddiygina belgi emas, ular lingvistik, madaniy va ijtimoiy ma’nolarga ega. Ushbu tahlil ism va uning denotati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, ismlarning identifikatsiya, tarixiy kontekstlar va madaniy qadriyatlarni qanday aks ettirishini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek misollarini tahlil qilib, ismlarning turli tillar va madaniyatlarda qanday ishlashini ko‘rsatamiz.*

Kalit so‘zlar: *atoqli otlar, turdosh otlar, denotative, onomastika, konnotatsiya.*

Якупова Камила Турмахамметовна (Нукусский государственный педагогический институт, кафедра английского языка и литературы, ассистент -преподаватель; e-mail: kamilayakupova1984@gmail.com)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИМЕН И ИХ ДЕНОТАТОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ взаимосвязи имен существительных и их обозначений, а также их лингвистических, культурных и социальных значений в английском и узбекском языках. Имена – это не просто символы; они имеют лингвистическое, культурное и социальное значение. В этом анализе изучается связь между именем и его значением, показывая, как имена отражают идентичности, исторические контексты и культурные ценности. Мы проанализируем примеры на английском и узбекском языках, чтобы показать, как существительные функционируют в разных языках и культурах.*

Ключевые слова: *имена собственные, имена нарицательные, денотативные, ономастика, коннотция.*

Yakupova Kamila Turmaxammetovna (Nukus State Pedagogical Institute, Department of English and Literature, assistant teacher; e-mail: kamilayakupova1984@gmail.com)

A COMPARATIVE ANALYSIS OF NAMES AND THEIR DENOTATIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *The article provides a comparative analysis of the relationship between names and their denotations, as well as their linguistic, cultural and social meanings in English and Uzbek language. Names are not just symbols; they have linguistic, cultural and social meanings. This analysis examines the relationship between a name and its meaning, showing how names reflect identities, historical contexts and cultural values. We will analyze examples in English and Uzbek to show how names function in different languages and cultures.*

Keywords: *proper names, common nouns, denotative, onomastics, connotation.*

Kirish. Atoqli otlarni qo‘llash bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan ilk asarlar Aristotelga tegishli [1;437–401-b.;7-b.]. Uning “Ritorika” va “Poetika” asarlarida, ko‘pincha, o‘zaro o‘xshash deb talqin qilingan ismlar va ularning denotatlariga oid ba’zi fikrlar, nutqda ismlardan va ismlar ishtirok etgan iboralardan foydalanishning alohida usullari, estetik yoki hissiy ta’sirni kuchaytirish uchun har bir qo‘llanilgan holatlar ko‘zda tutiladi, jumladan, Aristotelda taqqoslashlar, metaforalar, xudolar va mifologik qahramonlar ismlaridan foydalanish, Gomer she’riyatida kuchaytirish va boshqalardan foydalanilgan [2;947–952-b.]. Aristoteldan, taxminan, yuz yil o‘tgach, stoiklarga mansub faylasuf Xrissip atoqli otlarni alohida ot kategoriyasiga ajratadi [3;367-b.]. Antik davrning eng mashhur asari Platonning “Dialog”idir. “Kratil” dialogida faylasuf,

Kratil va Germogen o‘rtasidagi, ismlarning tabiati va mohiyati haqidagi bahsni hal qilishga urinib, bir qator savollarni ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadi, bu savollarni Suqrot bilan bahslashuvda: nomlarning tasodifiy tanlovga asoslanib belgilanishi yoki nomlangan narsalarning tabiatiga ko‘ra belgilanishi, narsalarning o‘z xususiyatlari borasida nima tushunilishi, atoqli otlardan to‘g‘ri foydalanish haqidagi masalalarni tadqiq qiladi [4;36–59-b.]. Yuqorida keltirilgan mulohazalarni zamonaviy tilga o‘girish orqali muhokama markazidagi onomastikaning zamonaviy qiyofasi atrofidagi muammolar qamrovi batamom belgilab chiqilganiga amin bo‘lish mumkin, chunonchi, ismlar tabiati hamda ularning semantikasi, ismlarning badiiy personajlarga muvofiqligi, badiiy matnlar yaratilishi hamda idrok qilinishidagi tarkib va mazmun jihatdan ta’sir qilinishi kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin. Ammo ismlarni anglashga qaratilgan tajribalar to‘plamining qadimiyrog‘i haqida ma’lumotlar u qadar keng ma’lum emasligini qayd etish lozim. Ayni holatda so‘z F.de Sossyur tomonidan aniqlangan qadimgi hind-yevropa tillaridagi matnlarning tilshunos fikricha, ularning muallifi tomonidan amalga oshirishga urinilgan tovush mohiyatiga bag‘ishlangan dastlabki grammatik-poetik va fonetik-poetik tahlillariga taalluqlidir [5;639–647-b.]. Bu kashfiyot olimni so‘z talaffuz shakli haqidagi fan boshqacha qilib aytganda so‘zlarning tovush tahlili shoirlarning odatiy mashg‘ulotiga aylangani, bu “eng qadimgi hind-yevropa davrlaridan beri hind *kavis* (shoir)lari, lotin *vates* (shoir)lari va boshqa millat shoirlarining o‘z ustunliklari” ekani haqidagi xulosaga olib kelgan [2;639-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy ilm-fanda maxsus onomastik tadqiqotlarning boshlanishiga tamal toshi, odatda, XIX asrda ingliz olimi J.S.Mill tomonidan qo‘yilgan deb hisoblanadi. Uning fikrlari mantiq-falsafiy asosga tayanib (bunda, asosan, T.Hobbes g‘oyalariga asoslanilgan) qurilgan, shunga qaramay, u tomonidan ishlab chiqilgan asosiy qoidalar, keyinchalik, tillar nazariyasiga, ayniqsa, referensiya nazariyasiga, nominatsiya nazariyasiga ta’sir ko‘rsatgan, ayniqsa, atoqli va turdosh otlar haqidagi qarashlarga ta’sir ko‘rsatdi. Millning fikricha, otlar o‘zlari atayotgan narsalarning haqiqiy nomlari bo‘lib, bu bizning ular haqidagi tasavvurlarimizning nomlanishi emas. “Barcha ismlar xoh xayoliy, xoh haqqoniy bo‘lsin, nimanidir atab keladi, shu bilan bir qatorda, har alohida narsaning ham o‘z nomi bo‘lmasligi mumkin. Ayrimlari uchun esa ularni farqlovchi maxsus, alohida ismlar kerak, masalan, har bir shaxs, yoki makon o‘z alohida nomiga ega bo‘lishi kerak va h.k” [6;22-b.]. John Millga tegishli bo‘lgan fikrga ko‘ra, ismlar hech qanday ma’no bildirmasdan, biror narsani belgilash uchun tanlangan “belgi”lar kabi tushuniladi. Ular biror narsa yoki shaxsni belgilash vazifasini bajaradi, ammo hech qanday mazmunni bayon qilmaydi. Bu munosabat tilshunoslik tomonidan o‘zlashtirilgan va yuz yildan ortiq vaqt mobaynida hukmron bo‘lib kelgan.

John Mill ismlar o‘zaro ajratilishidan hosil bo‘lgan turdosh va atoqli otlar orasida aniq farq tilning tabiati bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Shu bilan birga, u ‘konnotatsiya’ atamasini iste’molga kiritgan. Nomlarni o‘zlari atayotgan predmetga qarama-qarshi qo‘yib, ularni konnotativ otlar va konnotativ bo‘lmagan otlarga ajratgan, bunda ikkinchi kategoriyaga atoqli otlarni kiritadi hamda ular faqat predmetlarni ko‘rsatish vazifasini bajaradi ammo ularni tavsiflamaydi, deb tushungan [2;27-b.]. Shu bilan birga, N.D. Arutyunovaning so‘zlariga ko‘ra, olim ma’no ot tomonidan denotatsiya qilinganida emas, askincha, konnotatsiya qilinganida anglashinilishi va konnotativ ma’noga ega bo‘lmagan otlar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmasligini inobatga olib “ismlarning semantik dualizmini” tushunchasini iste’molga kiritgan [7;5-38-b], xulosa sifatida Mill lingvistikada har doim simmetrik ishlamaydigan mantiqiy prinsiplarga amal qilganini, shunga qaramay, onomastik nazariyalar XX asr davomida uning g‘oyalari ta’sirida bo‘lganini qayd etish lozim bo‘ladi.

Ot so‘z turkumiga mansub kategoriya birliklarini turdosh (umumiy) va atoqli otlarga ajratish XVIII asr boshlarida G.V.Leybnits tomonidan ilmiy iste’molga kiritilganini qayd etib o‘tish lozim. Bu haqida so‘z yuritarkan, olim quyigilarni qayd etgan: “garchand, yagona va unikal predmetlar mavjud bo‘lsa ham, aksariyat so‘zlar, baribir, umumiy terminlardan iborat bo‘ladi, biz tez-tez aniq bir individlar, shuningdek, davlat, shahar, tog‘ va boshqa toponimlarni anglatuvchi atoqli otlardan foydalanamiz” [8;288–289-b.]. Ayni o‘rinda Millning g‘oyalari til belgisi haqidagi bahsni boshlab bergani, unga faylasuf olimlar, keyinroq, tilshunoslar qo‘shilgani, mazkur bahs u yoki bu tarzda atoqli otlarning maqomini ham qamrab olganini qayd etish lozim.

J.Millning g‘oyalariga alohida e’tibor qaratgan yana bir mantiqshunos B.Josef uning qarashlarini nominalistik deb hisoblagan [9;564-b.]. Uning fikricha, o‘xshash individual nomlarni olgan obyektlarda mazkur nomdan boshqa umumiylikka mavjud nominalizm, o‘z tabiatiga ko‘ra, realizmga ontologik zid bo‘lib, ayni o‘rinda, realizm nuqtayi nazariga ko‘ra, o‘xshash individual nomlangan obyektlar o‘sha nomlar bilan bir qatorda xususiyatlar umumiyligiga ham ega bo‘ladiki, barchasi jamlangan holatda ular universaliyalar deb yuritiladi. J.Millning otlarni lingvistik belgilar deya talqin qiluvchi g‘oyasini rivojlantirgan

Joseph unga teskari bo‘lgan atoqli otlar turdosh otlardan ko‘ra kengroq qamrovga ega bo‘la olishi haqidagi xulosaga keladi. Bu holni olim quyidagicha izohlab beradi: tanganing qirilgan chizig‘i uni o‘ziga o‘xshash boshqa tangalardan farqlash vazifasini bajarganidek yoki Odisseyning tovonidagi chandiq uning enagasi tomonidan tanib olinishiga yordam berganidek, atoqli ot predmetning shu turdagi boshqa obyektlardan farqini ifodalash, unga xos xususiyatlarni, signifikativ belgilarni o‘zida aks ettirish orqali tanib olish imkonini taq-dim etadi [2;151–152-b.]. “Agar atoqli ot avvaldan yaxshi ma’lum bo‘lgan narsani anglatadigan bo‘lsa, u ibratomuz xususiyat kasb etishi mumkin”, lekin u avvaldan tanimagan shaxsga individ haqida, umuman, hech nima anglatmaydi [2]. Josephning atoqli otlar nazariyasiga qo‘shgan muhim hissasi, shuningdek, denotatsiya va konnotatsiya ta’limotini rivojlantirish bo‘lgan.

XX asrda olib borilgan onomastik tadqiqotlar B.Rassel nazariyasining kuchli ta’siri ostida bo‘lgan [10;41–54-b.], N.D.Arutyunovaning fikricha, u nominal iboralarning semantik dualizmidan kelib chiqqan mantiqiy “noqulayliklar”dan o‘ziga xos ismlar yoki o‘ziga xos ismlar va tavsiflarni (tasviriy iboralar, jumladan, umumiy otlar) aniq farqlash orqali xalos bo‘lishga intilgan [7;8–18-b.]. Rasselning mantiqiga ko‘ra, nom – o‘zi ma’no (denotat bilan bog‘liq)ga ega bo‘lgan oddiy (to‘liq) ramz va hukm mavzusining vazifasini bajarish uchun mo‘ljallangan. Bunga qarshi, tavsif to‘liq ramz emas, ma’no (denotatga nisbatan) faqat gapda, ya’ni u nutqda taklif funktsiyasida (predikat sifatida) faollashtirilganda qo‘llaniladi. Yuqoridagilarning ikkalasini taqqoslaganda, u ismlarni yashirin tavsiflar (yashirin tavsiflar) ekvivalentlari deb hisoblagan. Rassel faqat haqiqiy denotati bo‘lganda atoqli ot haqida gapirish mumkin deb hisoblagan; agar u nomlab keladigan haqiqiy obyekt bo‘lmasa, otni qo‘llash ma’nosizdir, ya’ni Suqrot olim uchun atoqli ot, ammo Gamlet atoqli ot emas edi [Rassel. 1997; 84–97-b.]. A.V.Superanskaya Rasselning mulohazalarida ziddiyat mavjudligini qayd etgan, olima atoqli otning o‘zi va u ifodalayotgan real borliqdagi ob’yekti o‘rtasidagi ot lingvistik kategoriyasi o‘zining denotati haqidagi ma’lumotlar bilan aloqadorlikda chalkashlik borligini haqli ravishda qayd etgan. U “atoqli otlar – bu quyi iyerarxik pog‘onadagi o‘zgaruvchan birliklarning barqaror ifodasi” degan mantiqiy ta’kidni tanqid qilgan [2], atoqli otlar turdosh otlarning ma’nosi bo‘lolmaydi, aksincha, atoqli otlarning ma’nosi turdosh otlar orqali ochiladi deya ta’kidlagan [3;63–65-b.]. G‘arb falsafiy nazariyalarini e’tirof etgan holda, ular onomastika fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, barcha kontseptsiyalarni batafsil bayon qilish zarurati ular A.V.Superanskaya [Superanskaya. 1973], N.D.Arutyunova [Arutyunova. 1982], D.I.Yermolovich asarlarida batafsil sharhlab berilgani [Yermolovich. 2004] tufayli yo‘qqa chiqadi.

Rus tilshunosligida XX asrdagi falsafiy va filologik turdagi tahlillarda ot so‘z turkumi maxsus turkum kategoriyasidagi so‘z sifatida ko‘rib chiqilish an’anasini, avvalo, P.A.Florenskiy [Florenskiy. 2000], A.F.Losev [Losev. 2010–2013; 1990] hamda Y.M.Lotman semiotik maktabi vakillarining tadqiqotlarida uchratish mumkin [Lotman. 2000]. Ot so‘z turkumiga mansub birliklarni qo‘llashning u yoki bu sohasiga yondashuv, ular haqidagi falsafiy va filologik tahlillarning olib borilishi, alaloqibat bu hodisani yakuniy holatda chuqur nazariy xulosalarga asoslangan yangi onomastik tadqiqot yo‘nalishlarining paydo bo‘lish asosiga aylanishiga turtki bo‘lgan.

Yuqorida sanab o‘tilganlardan Pavel Florenskiy ism va uning egasining shaxsiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishga harakat qilib, qator pravoslav ismlarini aniq tarixiy shaxslar taqdiri prizmasidan tahlil qildi. Natijada u ismlar “shaxsning turi, uning ontologik shakli, keyinchalik, uning ruhiy va ma’naviy tuzilishini belgilaydigan shakl”ni ifodalaydi, degan xulosaga keldi [11;42-b-]. Olam ilm-fanida ustuvorlik qilgan materialistik ilmiy dunyoqarash bunday g‘oyalarni qabul qilmagan, biroq XX asrning oxirgi o‘n yilligida olimning original g‘oyalariga qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ilmiy jihatdan, rus tili ismlarining fonetik jihatlarini badiiy matn tahlilida aks ettirilgan holda batafsil bayon etish, “Ismlar” kitobida yoritilgan. Holatning muqoyasa qilinayotgan tillar misolidagi tahliliga quyida batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ismlar oddiygina belgi emas, ular lingvistik, madaniy va ijtimoiy ma’nolarga ega. Ushbu tahlil ism va uning denotati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, ismlarning identifikatsiya, tarixiy kontekstlar va madaniy qadriyatlarni qanday aks ettirishini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek misollarini tahlil qilib, ismlarning turli tillar va madaniyatlarda qanday ishlashini ko‘rsatamiz.

Tahlil va natijalar. Tarixiy va madaniy ahamiyat borasida ingliz tilida keng tarqalgan “Elizabeth” atoqli otini ko‘rib chiqish mumkin. Ushbu ism ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyatda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pincha, Britaniya qirolichalari, xususan, qirolicha “Elizabeth I” va “Elizabeth II” bilan bog‘liq. Mazkur rakursda qaraganda, atoqli ot nafaqat bir kishini bildiradi, balki yetakchilik, tarix va an’analar kabi xususiyatlarni ham ifodalaydi. Ism va uning denotati o‘rtasidagi bog‘liqlik tarixiy hikoyalar va madaniy xotira orqali mustahkamlanadi. “Elizabeth” ismining ontologik shakli ushbu kontekstda qirollik personajini o‘z ichiga oladi, bu esa jamiyatda ma’naviy va psixologik tuzilishni belgilaydi.

“Apple” ismi, asosan, umumiy ot bo‘lsa-da, zamonaviy ingliz tilida texnologiya kompaniyasi Apple Inc. tufayli mashhur onimga aylandi. Ushbu denotativ o‘zgarish otlarning vaqt o‘tishi bilan madaniy va tijorat omillar ta’sirida yangi ma’nolar va assotsiatsiyalarni qanday qabul qilishini ko‘rsatadi. Denotativ o‘zgarish oddiy meva nomidan texnologiya va innovatsiyalarni ifodalovchi belgiga o‘tishni anglatadi.

O‘zbek tilida “Islom” ismi keng tarqalgan bo‘lib, o‘zbek madaniyatida islomning ahamiyatini aks ettiradi. Ism nafaqat bir shaxsni bildiradi, balki diniy identifikatsiya, e’tiqod va madaniy meros kabi konnotatsiyalarga ega. Bu o‘zbek tilidagi ismlar, ko‘pincha, chuqur madaniy va diniy qadriyatlarni aks ettirib, shaxsni keng jamiyatiy identifikatsiyaga bog‘laydiganligini ko‘rsatadi. “Islom” ismining ontologik shakli diniy fazilatlarni o‘z ichiga oladi va madaniy kontekstda shaxsning ma’naviy va psixologik tuzilishini shakllantiradi.

“Amir Temur” (Temur) ismi yana bir misolida tahlil qilish yangicha madaniy-tarixiy xususiyatlar haqida ma’lumotni yuzaga chiqaradi. O‘zbek xalqi tarixida Amir Temur tarixiy shaxs bo‘lib, uning ismi qudrat, fath va milliy faxrni bildiradi. Ushbu isming tarixiy ahamiyati o‘zbek madaniy hayoti hamda dunyoqarashida chuqur o‘rnashgan bo‘lib, zamonaviy kontekstlarda qanday qabul qilinishiga ta’sir qiladi. “Amir Temur” ismining ontologik shakli tarixiy jasorat va yetakchilik elementlarini o‘z ichiga oladi, bu esa mazkur onimni madaniy va psixologik qabul qilish shart-sharoitini aks ettiradi.

Ingliz va o‘zbek ismlarining qiyosiy tahlili ismlar va ularning denotatlari o‘rtasidagi bir nechta muhim nuqtalarni ochib beradi:

Ikkala tildagi ismlar ham o‘zlarining tegishli madaniy va tarixiy kontekstlarida chuqur o‘rnashgan. Ingliz tilida “Elizabeth” qirollik bilan bog‘liq konnotatsiyalarni tashisa, o‘zbek tilida esa “Islom” va “Amir Temur” diniy va tarixiy ahamiyatni aks ettiradi. Ushbu madaniy integratsiya ismlarning denotativ quvvatini kuchaytirib, shaxslarni kengroq hikoyalarga bog‘laydi.

Ikkala tilda ham ismlarning ma’no evolutsiyasini quyidagicha aks ettirish mumkin. Ingliz tilida “Apple” meva nomidan texnologiya kompaniyasi nomiga o‘tgan bo‘lsa, o‘zbek tilida zamonaviy voqealar yoki shaxslar ta’sirida ismlarning yangi denotatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Bu evolutsiya ismlarning dinamik tabiati va yangi denotatsiyalarni qabul qilish qobiliyatini namoyon qiladi. O‘zgarayotgan ontologik shakllar madaniy va ijtimoiy qadriyatlarning moslashuvchanligini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Ikkala til ham ismlarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni aks ettira olishini ko‘rsatadi. Siyosiy yetakchilar yoki muhim tarixiy voqealar ismlarning lug‘atga kirib borishi va jamiyatda qanday qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Ushbu ijtimoiy-siyosiy ta’sir ismlarning jamiyat qadriyatlari va tarixlarini shakllantirish va aks ettirishdagi kuchini ko‘rsatadi. Bunday ismlarga tegishli ontologik shakllar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hikoyalar va g‘oyaviy tuzilmalarga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Аристотель. Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Категории. Аристотель. Минск, “Литература”, 1998, с. 1392 (Классическая философская мысль); ISBN 985-437-401-7.

(2). O‘sha asar. 947–952-betlar.

(3). Суперанская А В. Общая теория имени собственного. Москва, “Наука”, 1973, 367 с.

(4). Платон. Кратил. Платон. Античные теории языка и стиля. Москва–Ленинград, Государственное социально-экономич. издательство, 1936, с. 36–59.

(5). Соссюр Ф. Отрывки из тетрадей, содержащих записи об анаграммах. Труды по языкознанию. Москва, “Прогресс”, 1977, с. 639–647.

(6). Милль Дж. С. Система логики символической и индуктивной. Пер. с англ, Москва, “Леман”, 1914, с. 22.

(7). Арутюнова Н.Д. Лингвистические проблемы референции. Новое зарубежной лингвистике. Вып. XIII. Логика и лингвистика (Проблемы референции). Москва, «Радуга», 1982, с. 5–38.

(8). Лейбниц Г.В. Новые опыты о человеческом разумении. 1703–1704. В 4-х т., т. 2, Москва, “Мысль”, 1983, с. 288–289 (Филос. наследие).

(9). Joseph H.W.B. An Introduction to logic. Ed.2, Oxford, At the Clarendon Press, 1946, 564 p. https://archive.org/details/introductiontolo00jose/page/n1/mode/2up murojaat sanasi 21.05.2024).

(10). Рассел Б. Дескрипции. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.XIII. Логика и лингвистика. – Москва, «Радуга», 1982, с. 41–54 (Проблемы референции); Рассел Б. Человеческое познание. Его сфера и границы Киев, «Ника-Центр», 1997, 560 с. (ПОЗНАНИЕ; Вып.1). ISBN 966-521-012-2.

(11). Флоренский П.А., П.А.Флоренский. Харьков, “Фолио”, М., АСТ, 2000, с. 40.